

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM

VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI

SAQLASH VAZIRLIGI

QORAQALPOG'ISTON TIBBIYOT INSTITUTI

Ruyxatga olindi № BD. 24/9- 4/3. 03

Rektor prof. Ataniyazova O.



2024 y.

**ICHKI KASALLIKLAR
MODUL DASTURI**

4-kurs

Bilim soxasi: 900000 - Sog'liqni saqlash va ijtimoiy himoya

Ta'lim soxasi: 910000 - Sog'liqni saqlash

Ta'lim yo'nalishi: 60910200 - davolash ishi

Nukus-2024

Modul kodi	O'quv yili	Semestr	Kredit 7,0
IK	2024-2025	VII-VIII	
Moduli turi	Ta'lim tili qoragalpog, uzbek, rus		Haftadagi dars saotlari 6
majburiy			
1	Modul nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (saot)	Mustaqil ta'lim (saot)
			Jami yuklama (saot)
	Ichki kasalliklar	144	103
			247
2	1. Modulning mazmuni		
O'quv modulining maqsadi			
1.1. Modulning maqsadi- ichki kasalliklarning turli variantlarida, shuningdek, ba'zi keng tarqalgan kasalliklarning atipik kechishida, kam uchraydigan kasalliklarning tipik kechishida klinik tashxis qo'yish va uni asoslashni, ular asoratlari oldini olish va standartlar asosida davolash ko'nikmasini shakllantirish.			
Modulning vazifalari			
– ichki kasalliklar etiologiyasi, patogenez, klinikasi, tasnifi, klinik ko'rinishlari, qiyosiy tashxislash, asoratlari, davosi va profilaktikasi bo'yicha bilimlarni shakllantirish;			
– a'zolar sistemasi bo'yicha kasallardan anamnez yig'ish va tekshirishlar o'tkazish malakasini rivojlantirish;			
– kasalliklarning asosiy klinik mezonlarini aniqlashni o'rgatish;			
– talabalarda dastlabki va klinik tashxis qo'yish, tekshirish rejasi va vrach taktikasini tuzish;			
– laborator va instrumental tekshirish usullari natijalarini interpretatsiya qilishni o'rgatish;			
– bemorga kompleks davo buyurish va davo samaradorligini aniqlash jarayonlarini o'rgatish.			
II. Asosiy nazariy qism			
II.1. Moduldaagi ma'ruza mashg'ulotlari mavzulari va mazmuni;			
7.semestr:			
1-mavzu. Revmatoid artrit. Kasallikning etiologiyasi, patogenez, patologik anatomiyasi, tasnifi, klinikasi, tekshirish usullarini o'rganish, laborator tahlillar natijalarini interpretatsiya qilish, davolash standartlari va profilaktikasi.			

2- mavzu. Seronegativ spondiloartritlar. Reaktiv artritlar. Psoriatik artrit. Etiologiya, patogenez, tasnifi, kechishi, klinikasi, asoratlari, diagnostikasi, diagnostik mezonlari. Bexerev kasalligi. Etiologiyasi, patogenez, tasnifi, kechishi, klinikasi, asoratlari, diagnostikasi, diagnostik mezonlari, davolash standartlari.
3- mavzu. Podagra. Kasallikning etiologiyasi, patogenez, patologik anatomiyasi, tasnifi, klinikasi, tekshirish usullarini o'rganish, laborator tahlillar natijalarini interpretatsiya qilish, davolash standartlari va profilaktikasi. Parhezning ahamiyati.
4- mavzu. Sistemali qizil yugurik. Etiologiya, patogenez, tasnifi, kechishi, klinikasi, asoratlari, diagnostikasi, diagnostik me'zonlari, laborator tahlillar natijalarini interpretatsiya qilish, davolash standartlari.
5- mavzu. Oshqozon va 12 barmoqli ichak yara kasalligi. Kasallikning etiologiyasi, patogenez, patologik anatomiyasi, tasnifi, klinikasi, tekshirish usullarini o'rganish, laborator tahlillar natijalarini interpretatsiya qilish, kasallikning asoratlari, davolash standartlari va profilaktikasi.
6- mavzu. Surunkali gepatit. Kasallikning etiologiyasi, patogenez, patologik anatomiyasi, tasnifi, klinikasi, tekshirish usullarini o'rganish, laborator tahlillar natijalarini interpretatsiya qilish, davolash standartlari va profilaktikasi.
7- mavzu. Jigar sirozi. Jigar yetishmovchiligi. Etiologiyasi, patogenez, tasnifi, klinikasi, tekshirish usullarini o'rganish, laborator tahlillar natijalarini interpretatsiya qilish, davolash standartlari. Jigar yetishmovchiligi. Jigar komasida shoshilinch terapiya.
8.semestr:
8- mavzu. Glomerulonefritlar. Kasallikning etiologiyasi, patogenez, patologik anatomiyasi, tasnifi, klinikasi, tekshirish usullarini o'rganish, laborator tahlillar natijalarini interpretatsiya qilish, davolash standartlari va profilaktikasi.
9- mavzu. Nefrotik sindrom. Etiologiyasi, patogenez, tasnifi, klinikasi, tekshirish usullarini o'rganish, laborator tahlillar natijalarini interpretatsiya qilish, davolash standartlari.
10- mavzu. Surunkali buyrak kasalligi. Etiologiyasi, patogenez, tasnifi, klinikasi, tekshirish usullarini o'rganish, laborator tahlillar natijalarini interpretatsiya qilish, davolash standartlari.
III. Moduldaagi amaliy mashg'ulotlarning mavzulari, tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar:
Modul bo'yicha mashg'ulotlar 50% nazariy (ma'ruza va amaliy mashg'ulot) va 50% amaliy qism (o'quv klinik amaliyot)dan iborat bo'lgan holda o'tkaziladi. Amaliy mashg'ulotning nazariy va amaliy qismini o'zaro bog'liq holda o'tkaziladi.
7- semestr:
1- mavzu. Revmatoid artrit
2- mavzu. Deformatsiyalovchi osteoartrroz

Amaliy mashg'ulotlarning mavzular ro'yhati:

- 3-mavzu. Seronegativ spondiloartritlar
- 4-mavzu. Reaktiv artrillar
- 5-mavzu. Podagra
- 6-mavzu. Birkitruvchi to'qimaning diffuz kasalliklari: sistemali qizil yugurik
- 7-mavzu. Birkitruvchi to'qimaning diffuz kasalliklari: sistemali sklerodermiya, dermatomiozi
- 8-mavzu. Tizimli vaskulitlar: Tugunchali periartrit, Guddascher sindromi, Vegener granelamatozi
- 9-mavzu. Tizimli vaskulitlar: Nospetsifik aortaarterit. Shenley-Genox kasalligi.
- 10-mavzu. Osteoporoz
- 11-mavzu. Gastritlar
- 12-mavzu. Oshqozon va 12 barmoqli ichak yara kasalligi
- 13-mavzu. Surunkali xolelitsit
- 14-mavzu. Surunkali gepatit
- 15-mavzu. Jigar sirrozi. Jigar yetishmovchiligi
- 16-mavzu. Surunkali pankreatit
- 17-mavzu. Ingichka ichakning surunkali kasalliklari.
- 18-mavzu. Nospetsifik yarali kolit

8.semestr:

- 19-mavzu. Surunkali piyelonefrit
- 20-mavzu. O'tkir glomerulonefrit
- 21-mavzu. Surunkali glomerulonefrit
- 22-mavzu. Nefrotik sindrom
- 23-mavzu. Buyrak amiloidozi
- 24-mavzu. Surunkali buyrak kasalligi

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar:

- Amaliy mashg'ulotlar mul'timediala qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir o'qituvchi tomonidan o'tkaziladi.
- Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishdagi didaktik tamoyillarga amal qilinadi:
- Amaliy mashg'ulotlarni maqsadini aniq belgilab olish;
 - O'qituvchining innovatsion pedagogik faoliyati bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish imkoniyatlariga talabalar qiziqish uyg'otish;
 - Talabada natijani mustaqil ravishda qo'lga kiritish imkoniyatini ta'minlash;
 - Talabani nazariy-metodik jihatdan tayyorlash va h.k.

IV. Modulni o'qitish davomida egallanadigan amaliy ko'nikmalar:

Modul davomida talabalar keng tarqalgan ichki azolalar kasalliklariga nozologik klassifikatsiyalar, laborator va instrumental usullar hamda diagnostik mezonlardan yordamida klinik tashxis qo'yish, standartlar asosida davolash va davo samadorligini nazorat qilish, kasallik asoratlari oldini olish, kechiktirib bo'lmaydigan holatlarda tezkor yordam ko'rsata olish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

Modul davomida egallanadigan amaliy ko'nikmalar to'yhati:

- 7-8-semestr:
1. Bo'g'im burchagini aniqlash.
2. Bo'g'im aylanasini o'lchash.
3. Kuschelyovskiy 1,2,3 sinamalarini aniqlash.
4. Surunkali buyrak kasalligida koptokchalar filtratsiyasi tezligini hisoblash. (Koktroff-Golt formulasi).
5. Surunkali buyrak kasalligida koptokchalar filtratsiyasi tezligini hisoblash. (Koktroff-Golt formulasi).
6. Nefrotik krizda shoshilinch yordam ko'rsatish.

Modul davomida o'quv amaliyotini tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar:

Talabalarining o'quv amaliyotini kafedraning o'quv honalarida o'tkaziladi. Amaliy ko'nikmalarga (uquvlar) o'rgatish jarayoni batafsil rejalashtiriladi va o'z ichiga oladi:

Birinchii bosqich – mashg'ulotning maqsadi va vazifalaridan kelib chiqqan holda o'rganilayotgan amaliy ko'nikmani o'rganish motivatsion asosi aniqlanadi, uning nazariy jihatlarini muhokama qilinadi. Amaliy ko'nikmalarni amalga oshirish uchun kerakli asbob-anjomlar ishlash mexanizmini, ishlatish qoidalarini bilan talabalar tanishtiriladi.

Birinchii bosqichni amalga oshirish uchun kafedrada barcha asbob-anjomlar mavjud va ishchi holatda bo'lishi lozim.

Ikkinchi bosqich – amaliy ko'nikmani namoyish qilib berish va ko'p marta mashq qilish. Bu bosqichni amalga oshirish uchun amaliy ko'nikmalarni qadamma qadam algoritmi pedagog tomonidan va videofilmlar orqali namoish etiladi, algoritim asosida bosqichma bosqich to'g'ri bajarishga alohida e'tibor qaratiladi. Talaba amaliy ko'nikmani mustaqil, biroq pedagog nazorati ostida mul'ajlar, volontyorlarda ko'p marta mashq qilib o'rganadilar. Boshida barcha bosqichlarini alohida, keyinchalik umumlashtirgan xolda to'liq va to'g'ri bajara olgandan so'ng bemorda qo'llashga ruxsat beriladi (imitation treningi).

Ikkinchi bosqichni amalga oshirish uchun kafedra tomonidan ishlab chiqqan amaliy ko'nikmalar qadamma qadam algoritmi va videofilmi, o'quv-uslubiy qo'llanmasi, bajarish sxemasi yoki texnikasi va h.k., baholash mezonlari ishlab chiqqan bo'lishi lozim. Mul'ajlar, volontyorlar, asbob-anjomlar bo'lishi lozim va kerakli shart-sharoitlar (maksimal darajada ish sharoitiga yaqin modelashtirilgan) yaratilishi lozim. Bu bosqichda pedagog nazorat qiladi va kerak bo'lganda talabalar ishida xatoliklarni to'g'irlaydi. Bu jarayonda talaba harakatlari videotasvirga olinib o'ziga namoyish etilishi,

tanqidiy muhokama qilinishi mumkin. Talaba, uning xatosi nimada ekanligini, o'qituvchiga va boshqa talabalarga tushuntirib beradi va so'ngra muolajani takrorlaydi. Interfaollik shunda namoyon bo'ladi, bunda boshqa talabalar ekspert sifatida chiqishda va o'qitilayotgan talabaning amaliy ko'nikmani to'g'ri o'zlashtirganligini baholashda ishtirok etadilar. Amaliy ko'nikma avtomatizm darajasigacha yetkazilishi maqsadga muvofiq.

Uchinchi bosqich - o'rganilgan bilim va amaliy ko'nikmani bemorda qo'llash. Bu bosqichda talaba o'zlashtirilgan bilim va amaliy ko'nikmani turli xil klinik holatlarda (shu jumladan shoshilinch holatlarda) qo'llashga, olingan natijalarni tahlil qilishga va shu ma'lumotlar asosida harakat taktikasini belgilashga pedagog nazoratida o'rgatiladi.

Uchinchi bosqichni amalga oshirish uchun kafedra tomonidan ishlab chiqilgan o'quv, uslubiy qo'llanmalar, fotosuratlar, vaziyatli masalalar va testlar to'plami, keystar, klinik protokollar, diagnostika va davolash standartlari, o'rgatuvchi kasallik tarixlari va ambulator kartalar va x.q. ishlatilishi lozim. Interfaollik shunda namoyon bo'ladi, bunda boshqa talabalar nafaqat ekspert sifatida chiqishda va o'qitilayotgan talabaning amaliy ko'nikmani to'g'ri o'zlashtirganligini baholashda balki komandada ishlashda ishtirok etadilar.

To'rtinchi bosqich – hulosa. Bu bosqichda pedagog talaba tomonidan olingan bilim va egallagan ko'nikmani bemorlarda, turli xil vaziyatlarda, faoliyat jarayonida to'g'ri va to'liq qo'llay olishiga ishonch hosil qilishi kerak va shunda amaliy ko'nikma o'zlashtirildi deb hisoblanadi.

To'rtinchi bosqichni amalga oshirish uchun talaba bemor bilan mustaqil ishlashi pedagog tomonidan nazorat qilinadi, tibbiy hujjatlarni, kasallik tarixini yozib himoya qilganda baholanadi.

Mashg'ulot so'ngida o'qituvchi har bir talabaning amaliy ko'nikmani o'zlashtirganligini tasdiqlaydi. Talaba amaliy ko'nikmani o'zlashtira olmagan vaziyatlarda, mashg'ulotdan tashqari vaqtda mustaqil o'zlashtirish tavsiya etiladi va pedagogga qayta topshiradi. Talaba barcha amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirgan holda modulni o'zlashtirgan hisoblanadi.

V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar,

Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzular ro'yhati:

7-semestr:

1. Bo'g'im kasalliklarini zamonaviy tekshirish usullari.
2. Bo'g'im sindromini qiyosiy taqqoslash.
3. Birlitiruvchi to'qima diffuz kasalliklarini zamonaviy tekshirish usullari.
4. Antifosfolipid sindrom.
5. Umurtqalart osteoxondrozi. Spondiloz. Spondilartroz.

6. Revmatik polimialgiya.
7. Polindrom revmatizm.
8. Sharp sindromi.
9. Shegren kasalligi.
10. Yalig'lanishga qarshi nosteroid va steroid dori vositalari klassifikatsiyasi. Qarshi ko'rsatma va nojo'ya ta'sirlari.
11. Kardiya axializyasi.
12. Gastrofageal refluyuks kasalligi.
13. Barret qizilo'ngachi.
14. Oshqozon va o'n ikki barmoqli ichak yara kasalligi asoratlari, diagnostikasi.
15. Vilson-Kanavalova kasalligi.
16. O't yo'llari diskineziyasi.
17. Kron kasalligi.
18. Ichak disbakteriozi.
19. Uippl kasalligi.
20. Ichak ta'sirlanish sindromi.

8 semestr:

21. Buyrak kasalliklari zamonaviy tekshiruv usullari.
22. Tubulointerstitsial nefropatiyalar.
23. Siydik tosh kasalligi.
24. O'rinsosar terapiya: gemodializ, plazmaferoz. Buyrak tansplantatsiyasi.
25. O'tkir buyrak yetishmovchiligi.
26. Nefrotik kriz.
27. Interstitsial nefrit. 28. Buyrak polikistozi.
29. Diuretik dori vositalari klassifikatsiyasi. Ko'rsatma, qarshi ko'rsatma, nojo'ya ta'sirlari.
30. Tizimli kasalliklarda buyraklarning shikastlanishi.

Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlarni tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar:

Ichki kasalliklar moduli bo'yicha mustaqil ish auditoriya va auditoriyadan tashqarida o'tkaziladi.

Talaba mustaqil ishini tashkil etishda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

- auditoriya mashg'ulotlaridan tashqari mul'ij va simulyatsion zallarda/markazlarda tasdiqlangan amaliy ko'nikmalarni pedagog nazoratida son va sifat jihatidan bajarish va amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish daftlarida aks ettirish;
- tibbiyot OTM klinikalari va klinik o'quv bazalarida auditoriyadan tashqari tashkilotlashirilgan klinik navbatchilikda tasdiqlangan ro'yxat asosida navbatchi shifokor-pedagog nazoratida standartlashirilgan patsiyentlar (bemorlar) kursiyasini o'tkazish va olib borish, dori bilan davolash tahlilini yozish va navbatchilik daftlarida aks ettirish;
- tibbiyot OTM klinikalari va klinik o'quv bazalarida auditoriyadan tashqari tashkilotlashirilgan klinik navbatchilikda tasdiqlangan amaliy ko'nikmalarni navbatchi shifokor-pedagog nazoratida son va sifat jihatidan bajarish va navbatchilik daftlarida

	<p>aks ettirish;</p> <ul style="list-style-type: none"> - bemorlarni kuratsiya qilishda davolovchi yoki navbarchi shifokor bilan birgalikda ishtirok etish; - aholi orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish tamoyillari haqida suhbat va matnuzalarni o'tkazish; - ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish; - berilgan mavzu bo'yicha axborot (referat) tayertlash; - modulning bo'limlari yoki mavzulari ustida maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo'yicha ishlash va ma'ruzalar qilish; - vaziyatli va klinik muammolarga yo'natirilgan vaziyatli masalalar yechish; - CASE (real klinik vaziyatlar va klinik vaziyatli masalalar asosida sase-study) yechish. - krossvordlar tuzish, organayzerlar tuzish va h.k.
3	<p>VI. Ta'lim natijalari/ kasbiy kompetensiyalar</p> <p>8-semestr yakunida:</p> <p>Talaba bilishi kerak:</p> <ul style="list-style-type: none"> - eng ko'p tarqalgan revmatologik, gastroenterologik, nefrologik, kasalliklarining etiologiyasi, patogenezi, klassifikatsiyasi klinikasi, asoratlari bilish, qiyosiy taqqoslash, kasallikka tashxis qo'yish, tekshiruv va kompleks davolash rejasini tuzish; - artroskopiya, teri-mushak loskuti biopsiyasi, me'da-ichak traktini endoskopik tekshiruv, umumiy va ekskretor urografiya, buyrak arteriyalari angiografiyasi qorin bo'shlig'i punktsiyasi to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi; - bemorlardan anamnezni ma'lumotlarni yig'a bilish (kasallik va hayot anamnezi), fizikal tekshiruv usullariga asoslangan holda bemorlarni organlar bo'yicha umumiy ko'rikdan o'tkazish; - taxminiy tashxisni shakllantirish va asoslash, bemorni tekshirish rejasini tuzish; - umumiy klinik laborator tekshiruvlar natijalarini: umumiy qon va siydik tahlili, qonning bioximik tahlili, oshqozon shirasini tekshirish, timol va sulema sinamalar, zimmitskiy va Nechiporenko sinamalarini koprogramma, axlarning bakteriolitik ekma natijalarini interpretatsiya qila olish; - klinik va yakuniy tashxis qo'yish va asoslash, rejali davolashni tavsiya etishni, kasallik asoratlari va ularning oldini olishni bilish va ulardan foydalana olish; - revmatologik, gastroenterologik, nefrologik kasalliklar bilan og'rigan bemorlarni tekshirish; - bemorni professional so'roq va ko'rikdan o'tkazish; - qonning umumiy, bioximik immunologik, serologik tahlili, sinovial suyuqlik tahlili natijalarini interpretatsiya qilish, me'da-ichak traktini endoskopik tekshiruv, bariyji rentgenografiya, umumiy va ekskretor urografiya, ichki a'zolar UTT tekshiruv natijalari asosida xulosa qilish; - kasallik tarixini to'g'ri yuritish kabi malakalarga (shu jumladan klinik amaliy ko'nikmalarga) ega bo'lishi kerak.

4	<p>VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari</p> <ul style="list-style-type: none"> • Interfaol o'yinlar; • Seminar(mantiqiy fikrlash, teskor savol-javoblar; • Guruhlarda ishlash; • Taqdimotlarni kiritish; • Individual loyixalar; • Jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyixalar
5	<p>VIII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Loriy nazorat shaklida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, oraliq va yakuniy nazorat turlari bo'yicha og'zaki va testlarni muvofiqqiyatli topshirishlari kerak.</p>
6	<p>Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbaalari</p> <p>Asosiy adabiyotlar:</p> <p>Gadaye A.G. Ichki kasalliklar, Darslik. T: Turon Zamin Ziyoy, 2021 y. (lotin). Gadaye A.G. Ichki kasalliklar, Darslik. T: Turon Zamin Ziyoy, 2018 y. Gadaye A.G. Karimov M.Sh. Ichki kasalliklar propedevitkasi. Darslik. T. 2018.</p> <p>Qo'shimcha adabiyotlar</p> <p>Nurillayeva N.M., Xasanova N.A. va boshqalar. Xolter monitorlash asoslari. O'quv qo'llanma. Toshkent. 2019 y. Gadaye A.G., Rozikov A.A., Raximova M.E. Amaliy elektrokardiografiya. - Toshkent. Turon Zamin Ziyoy nashriyoti. 2016 y. Murashko V.V., Strutsinskiy A.V. Elektrokardiografiya, uchebnoye posobiye. Moskva. 2019g. Roytberg G.E., Strutsinskiy A.V. Vnutrenniye bolezni. Sistema organov duxaniye. Uchebnoye posobiye. Moskva. 2018g. (elektron). Roytberg G.E., Strutsinskiy A.V. Vnutrenniye bolezni. Serdechno-sosudistaya sistema. Uchebnoye posobiye. Moskva. 2019g. Roytberg G.E., Strutsinskiy A.V. Vnutrenniye bolezni. Sistema organov pivevareniya. Uchebnoye posobiye. Moskva. 2018g. Moiseyeva V.S., Martynova A.I., Muxina N.A. Vnutrenniyebolezni. ebnik v dvux tomax. Moskva. 2012 g. Harrison's Textbook Principles of Internal Medicine-19th Edition – 2015.</p> <p>Internet saytlar:</p> <p>www.medlook.ru www.medbok.ru www.medicum.ru www.medtext.ru www.medkniga.ru www.cardiolime.ru</p>

	www: http://books.ru/book: http:// asp 2013. medicine/01/medicine 100645; 20. http:// dprom.ru/ medprom; http:// www.docs.pp.ru www.ziyonet.uz; www.lex.uz; www.cardiosite.ru; www.cardiologia.ru; www.bilim.uz; www.gov.uz; www.mf.uz.
7	Fan dasturi Qoraqalpog'iston tibbiyot institutida ishlab chiqilgan va institut kengashining 2024 <u>11.08</u> yildagi <u>10</u> - sonli bayonnomasi bilan maqullangan. O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i.
8	Fan/Modul uchun masullar: Karimova G.A. QTL, «Ichki kasalliklar va o'ylov tibbiot» kafedrası assistenti.
9	Taqrizchilar: Ermebaeva A. - QTL, «Ichki kasalliklar va o'ylov tibbiot» kafedrası mudiri, i.f.d.